

HUQUQIY NORMALALAR RAQOBATIDA KORRUPSIYAVIY VA IQTISODIY JINOYATLARNING SUB'EKTIV BELGISIGA KO'RA QILMISHNI KVALIFIKATSIYA QILISH MASALALARI

Ortiqaliev Bobur Ortiqali o'g'li
**Toshkent davlat yuridik universiteti Korrupsiyaga
qarshi kurashish va komplaens-nazorati
yo'nalishi magistranti**
<https://doi.org/10.5281/zenodo.8022538>

Annotatsiya: Mazkur maqolada huquqiy normalalar raqobatida korrupsiyaviy va iqtisodiy jinoyatlarning sub'ektiv belgisiga ko'ra qilmishni kvalifikatsiya qilish masalalari tahlil etilgan.

Kalit so'zlari: Sud, jinoyat, jazo, javobgarlik, korrupsiya, iqtisodiy, kvalifikatsiya, maxsus sub'ekt, sub'ektiv, belgi.

Ma'lumki, jinoyat tarkibining barcha alomatlari mavjud bo'lgan qilmishni sodir etish, shaxsni javobgarlikka tortish uchun asos bo'ladi. Demak, shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish va unga nisbatan jinoiy jazo yoki boshqa huquqiy ta'sir chorasini qo'llash uchun qonunning qaysi normasi buzilganligini, qilmishda qanday jinoyat tarkibi belgilari borligini aniq ko'rsatish lozim. Mazkur vazifa jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish vositasida bajariladi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 488-moddasida Jinoyat kodeksi normalarining noto'g'ri qo'llanishi holatlari ko'rsatilgan bo'lib, o'z navbatida bu holatlar hukmni bekor qilish yoki o'zgartirish uchun asos bo'ladi.

Shunday qilib, kvalifikatsiya asosli, qonuniy, to'g'ri va to'liq bo'lishi lozim. Chunki kvalifikatsiya jinoyat huquqida qonuniylikning asosiy elementi hisoblanadi, bir jinoyatni boshqa jinoyatlardan farqlash imkonini beradi, qilmishni jinoyat deb topishga, jinoyatning jinoyat-huquqiy va protsessual oqibatlarini aniqlash va adolatli jazo tayinlashga asos bo'ladi. Qilmish to'g'ri kvalifikatsiya qilinmas ekan, qonuniylik, odillik va ayb uchun javobgarlik prinsiplari buziladi. Shu sababli qonunni qo'llash jarayonida jinoyat qonunchiligi talablariga aniq rioya qilish va qilmishga to'g'ri huquqiy baho berishgina adolatli javobgarlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

S.S.Nayimov jinoyat-huquqiy normalar raqobati deganda "qilmishda bir jinoyat-huquqiy munosabatni tartibga soladigan, bir-biriga zid bo'lman, teng yuridik kuchga ega bo'lgan, tartibga solish ko'lami yoki mazmuni bilan farqlanadigan ikki yoki undan ortiq normalarning alomatlari mavjudligi bo'lib, unda bitta normaga ustunlik berilishini" tushunadi.

A.A.Gersenzon jinoyat-huquqiy normalar raqobati deganda "qilmish uchun bir xil javobgarlikni nazarda tutuvchi ikki yoki bir necha jinoyat qonunlarining mavjudligi"ni tushunadi .

R.Kabulovning yozishicha "jinoyat-huquqiy normalar raqobati tushunchasi o'zida, shaxs tomonidan bitta jinoyat sodir etilishini ammo shu bilan birga bir vaqtning o'zida shaxs tomonidan sodir etilgan jinoyatlarning belgilari jinoyat qonuni Maxsus qismining jinoiy-huquqiy normalarida nazarda tutilgan ikki yoki undan ortiq normalarning belgilarida aks etishini anglatadi".

A.K.Irkaxodjaev va U.Sh.Xolikulovlar normalar raqobatidan shuni tushuntiradiki, bir jinoiy harakatda bir vaqtning o'zida JKning ikki yoki undan ortiq mustaqil normalari yoxud bir normaning boshqa boshqa qismlari belgilari o'zida mujassamlashtirilgan bo'ladi .

V.P.Malkovning fikricha esa, jinoyat huquqida normalar raqobati deganda shunday holatni tushunish kerakki, “jinoyi qilmishni kvalifikatsiya qilishda berilgan konkret holatga qo'llash uchun o'z mazmuniga ko'ra mos kelgan yoki farqlanadigan, ko'rileyotgan masalani bir xil yoki har xil ko'lamma tartibga solishga qaratilgan ikki yoki undan ortiq jinoyat-huquqiy normalar da'vogarlik qiladi, qonunni qo'llovchi organ esa berilgan normalardan qaysi biri boshqalariga qaraganda ustun ekanligini hal qilishi zarur”.

V.N.Kudryavsev: “Jinoyat-huquqiy normalar raqobati zamirida shunday holat tushuniladiki, bunda (jinoyatlar majmui, takroran va residiv jinoyat sodir etishdan farqli ravishda) sodir etilgan bitta jinoyat ikki yoki undan ortiq jinoyat-huquqiy normalar alomatlariga to'g'ri keladi”, -degan ta'rifni beradi.

V.I.Pinchuk esa ushbu masalaga quyidagicha munosabat bildiradi: “Jinoyat-huquqiy normalar raqobati deganda shunday holat tushuniladiki, bunda bitta jinoyat JK Maxsus qismining bir necha moddalari bilan qamrab olinsa-da, lekin kvalifikatsiya uchun ulardan faqat bittasi, ya'ni berilgan jinoyat tarkibining barcha alomatlarini o'zida ifodalagan modda qo'llaniladi” .

Ko'rib turganimizdek, yuridik adabiyotda jinoyat-huquqiy normalar raqobatining tabiatini haqida yagona fikr yo'q, qolaversa, mualliflarning keltirilgan fikrlari tahlil qilinayotgan institutning ayrim xususiyatlarini nazarda tutmoqda xolos.

A.K.Irkaxodjaev, U.Sh.Xolikulovlar va S.Nayimovlarning normalar raqobatiga bergen ta'rifi to'g'riligini ta'kidlagan holda, ushbu ta'rif faqatgina Jinoyat kodeksi Maxsus qismining moddalari va moddasi qismlari o'rtasidagi raqobatni ko'rsatish bilan chegaralanganligini ham aytish joiz.

S.Nayimovning asarlarida jinoyat huquqiy normalar raqobati “normalar kolliziysi” atamasi bilan o'xshash tushunchalar sifatida ham tahlil qilinadi . Bu bejiz emas, albatta. Chunki qonunni aniq qo'llashda, mavjud bo'lgan ikki yoki undan ortiq normalardan birini to'g'ri tanlash, ushbu ikki institutga oid qoidalarni qo'llashning natijasi bo'lib keladi. Shuning uchun raqobat va kolliziyaning nisbati munozarali bo'lib kelmoqda. Jinoyat-huquqiy normalar raqobati va kolliziya bir-biriga yaqin tushunchalar bo'lganligi sababli ularning munosabati, o'xshash va farqli tomonlarini tahlil qilish lozim deb hisoblaymiz.

T.E.Karaev ushbu institutlar haqida yozib, “Ular bitta faktik munosabatni tartibga soluvchi bir necha normalar orasidan bittasini tanlab olishga qaratilgan huquqiy muammoni anglatadigan har xil atamalardir. Kolliziyyada bo'lgan normalar raqobati va raqobatda bo'lgan kolliziylar haqida bir xil darajada gapirish mumkin”, -deydi . Ya'ni u normalar raqobati va normalar kolliziyasiga bir xil tushuncha sifatida baho beradi. L.V.Inogamova jinoyat huquqida normalar raqobati tushunchasidan farq qiladigan normalar kolliziyasining umumiy tushunchasi yo'q va bunday farq bo'lmasligi ham kerak degan xulosaga keladi. S.Nayimov bu fikrga e'tiroz bildiradi. U jinoyatning asosiy tarkibi bilan og'irlashtiruvchi tarkibi o'rtasidagi raqobatda og'irlashtiruvchi normaga ustunlik berilsa-da, bu jinoyatning asosiy tarkibini to'la ma'noda inkor qilish degan xulosani bermasligini aytadi.

Yuridik adabiyotda normalar raqobati va kolliziyaning nisbati masalasida ularni bir-biriga bo'ysunmaydigan mustaqil institutlar sifatida o'rganish lozimligi to'g'risidagi fikrlar ham mavjud .

Yuridik atamalar va iboralar lug'atida kolliziyyaga qarama-qarshilik, bir-biriga zidlik deb, qonunlar kolliziysi atamasiga esa qonunlarning bir-biriga zidligi sifatida ta'rif berilgan .

Yuridik ensiklopediyada esa kollizion normaga quyidagicha ta’rif beradilar: “Kollizion (bir-biriga zid keluvchi) norma-xalqaro xususiyat kasb etuvchi fuqarolik, oila, mehnat munosabatlariiga nisbatan qaysi davlat huquqi yoki ichki davlat yuridik nizolarida qanday normativ hujjat qo’llanishi lozimligini ko’rsatib beruvchi norma”dir. Shuningdek, mualliflarning fikricha kollizion huquq turli davlatlar qonunlari yoki bir davlatning normativ hujjatlari o’rtasidagi qarama-qarshiliklarni hal etuvchi normalar yig’indisidir.

Keltirilgan fikr va mulohazalarni tahlil qiladigan bo’lsak, normalar raqobati va normalar kolliziyasining bitta umumiyligi belgisi borligini ko’ramiz. Bu institutlarni birlashtiradigan umumiyligi shundaki, raqobat va kolliziya qonunda bitta ijtimoiy munosabatni tartibga solishga qaratilgan ikki yoki undan ortiq norma bo’lganda mavjud bo’ladi.

Shu bilan birga, huquq nazariyasida normalar kolliziyasining o’ziga xos bo’lgan belgisi, ya’ni uning normalar o’rtasidagi qarama-qarshilik natijasida vujudga kelishi ko’rsatiladi. Normalarning bir-biriga zidligi kolliziyani raqobatdan farqlaydigan asosiy va ahamiyatli belgidir. Jinoyat huquqidagi kolliziya ham har doim normalar o’rtasidagi qarama-qarshilik natijasidir. Bu qarama-qarshilik jinoyat qonunchiligi normalari, jinoyat qonunchiligi va boshqa soha qonunchiligi normalari, eski va yangi qonun normalari va hokazolar o’rtasida mavjud bo’lishi mumkin.

Bu institutlar orasidagi farqlardan yana biri shundaki, jinoyat-huquqiy normalar raqobati mavhum (abstrakt) emas, ya’ni u kolliziyadan farqli ravishda o’z-o’zidan mavjud bo’lavermaydi. Normalar raqobati qonunni qo’llovchi shaxs ixtiyorida real ish holati bo’lib, shu holatni tartibga soladigan normalardan birini qo’llayotgan vaqtida paydo bo’ladi.

Mazkur tahlillardan kelib chiqib, biz normalar raqobati va kolliziyadan nisbatli masalasida ularni bir-biriga bo’ysunmaydigan mustaqil institutlar sifatida o’rganish lozimligi to’g’risidagi fikrlarga qo’shilamiz. Qo’shimcha qilib shuni ta’kidlash kerakki, raqobat va kolliziya orasidagi munosabatni to’g’ri aniqlash qonunni qo’llash amaliyotining muhim sharti hisoblanadi. Bu masalaning amaliy ahamiyati shundaki, qonunni qo’llovchi birinchi navbatda ko’rsatilgan muammolarning qaysi biri bilan to’qnashganligini aniq bilishi kerak.

Amaliyotda normalar raqobatini qo’llashning murakkabligi shu bilan shartlanadiki, odatda, mazkur institut jinoyatlarning ideal majmui bilan ko’proq o’xshash xususiyatlarga ega bo’ladi. Raqobatda ham, jinoyatlarning ideal majmuida ham shaxs bitta qilmishni sodir qiladi. Har ikkala holatda ham ushbu qilmishni kvalifikatsiya qilishga Jinoyat kodeksi maxsus qismining ikki yoki undan ortiq moddasi talabgor bo’ladi.

Jinoyat huquqi nazariyasi va sud amaliyotida jinoyatlarning ideal jami deganda shaxsning bir harakati tufayli JK Maxsus qismining kamida ikkita moddasi bilan qo’riqlanadigan ob’ektiga tajovuz qilish tushuniladi. Jinoyatlarning ideal jamini jinoyat-huquqiy normalar raqobatidan farqlash lozim. Jinoyat-huquqiy normalar raqobati shundan iboratki, maxsus sub’ekt tomonidan sodir etilgan qilmishda bir xil yoki o’xshash ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi ikki yoki undan ortiq normalarning alomatlari mavjud bo’ladi. Umumiy va maxsus normalar raqobatga kirishganida, maxsus norma qo’llanadi. Umumiy va maxsus normalarning ideal jami bo’lmaydi. Masalan, O’zbekiston Respublikasi

JK 205-moddasi (hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste’mol qilish) umumiy norma hisoblanadi. Undan ajratilgan maxsus normalar jumlasiga quyidagi moddalarda nazarda tutilgan hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste’mol qilishning muayyan turlari kiradi: 146-modda (saylov yoki referendum tashkil qilish, ularni o’tkazish to’g’risidagi qonun hujjatlarini

buzish, saylov yoki referendum hujjatlarini qalbakilashtirish, saylov yoki imzo varaqalariga soxta yozuvlar kiritish, berilgan ovozlarni ataylab noto'g'ri hisoblash); 148-modda (mehnat qilish huquqini buzish); 186-modda (sifatsiz mahsulot chiqarish yoki sotish); 209-modda (mansab soxtakorligi); 210-modda (pora olish); 230-modda (aybsiz kishini javobgarlikka torish); 234-modda (qonunga xi洛f ravishda ushlab turish yoki hisobga olish) va h.k. Mazkur ro'yxat to'liq emas, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida 40 taga yaqin shunday maxsus normalar mavjud. Masalan, hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilishning tarkibini oladigan bo'lsov, u umumiylar norma sifatida turdosh hodisalar guruhini tartibga soladi, ya'ni mansabdor shaxs tomonidan hokimiyat yoki mansab vakolatini jinoiy suiiste'mol qilish bilan bog'liq bo'lgan barcha holatlarni qamrab oladi. Maxsus normalar tushunchalarning to'lanishi mantiqiy qonunga muvofiq ajratiladi. Maxsus normaning ob'ektiv tomoni umumiylar normaning ob'ektiv tomoni qisman aks ettiriladi va uning amaldagi alomatlari muayyanlashtiriladi. Maxsus normalar hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilishning muayyan turini to'liqroq tafsiflaydi, uning ijtimoiy xavflilagini mufassal ta'riflaydi, binobarin, o'ziga xos jazo turi va miqdoriga ega bo'ladi.

Shuning uchun ham hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilishga ham umumiylar, ham maxsus normalarning alomatlari mos kelgan hollarda, faqat maxsus norma qo'llanadi, zero, u sodir etilgan hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilishning muayyan turini, binobarin, uning uchun jazo turi va miqdorini ham nisbatan to'liq va mufassal ta'riflaydiki, bu aybdorning harakatlarini yuqorida zikr etilgan normalarning ideal jami bo'yicha kvalifikatsiya qilinishiga zarurat qoldirmaydi.

Shu o'rinda modomiki, maxsus norma barcha hollarda qo'llanishi lozim ekan, O'zbekiston Respublikasi JK 205-moddasining amal qilish doirasi qanday bo'ladi? degan o'rinli savol tug'iladi.

Mazkur modda sodir etilgan hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilish maxsus normada nazarda tutilmagan hollardagina qo'llanadi. Masalan, mansabdor shaxs fuqarolarning turar joy daxlsizligini buzishda ifodalangan mansab vakolatini suiiste'mol qilish jinoyatini sodir etgan bo'lsa, uning harakatlari maxsus norma – O'zbekiston Respublikasi JK 142-moddasi bo'yicha kvalifikatsiya qilinadi. Agar mansabdor shaxs homilador yoki yosh bolani parvarish qilayotgan ayolning mehnat qilish huquqini buzishda ifodalangan mansab vakolatini suiiste'mol qilish jinoyatini sodir etgan bo'lsa, uning harakatlari O'zbekiston Respublikasi JK 148-moddasi 2-qismi bo'yicha kvalifikatsiya qiladi, chunki jinoyat qonunida hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilishning mazkur turi uchun javobgarlik nazarda tutilgan maxsus norma mavjuddir.

Binobarin, JKda 205-moddaning mavjudligi shu bilan belgilanadiki, u hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilishning maxsus normalarda nazarda tutilmagan turlarini jinoyat-huquqiy tartibga solish imkonini beradi.

Yuqorida qayd etilgan qoida universal bo'lib, maxsus sub'ektli jinoyatlarda umumiylar maxsus normalarning raqobati bilan bog'liq barcha holatlarga nisbatan tatbiq etilishi lozim.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi JKning "Boshqaruv tartibiga qarshi jinoyatlar" deb nomlangan XV bobida umumiylar mansabdorlik jinoyatlari jamlangan (JK 205, 206, 207, 208, 209, 210-moddalari).

Shu bilan bir qatorda, JK Maxsus qismining boshqa boblarida ham faqat mansabdor shaxslar tomonidan sodir etiladigan va davlat apparatining faoliyatiga ziyon yetkazadigan jinoyatlar

bilan bog'liq bir qancha normalar mavjud (masalan, JK 156, 175, 179-moddalari). Umumiy va maxsus normalar raqobatlashgan hollarda (normalar raqobatida) maxsus norma qo'llanishi jinoyat huquqida umumiy e'tirof etilgan.

Shunday qilib, normalar raqobati bilan jinoyatlar majmuining farqi shundaki, jinoyatlar majmuida uni tashkil qiluvchi qilmishlar, ularni bitta yagona jinoyatga kiritishga imkon beradigan belgilarga ega bo'lmaydi. Jinoyatlar majmuini tashkil qiluvchi jinoyat tarkiblari o'z mazmuniga ko'ra har xil bo'lib, biri boshqasidan kelib chiqmaydi, biri boshqasining xususiy ko'rinishi bo'lmaydi, xuddi shuningdek, ushbu normalar belgilarining o'zaro kesishish yoki mos kelish holatlari kuzatilmaydi. Unga to'g'ri huquqiy baho berish uchun qilmishni Jinoyat kodeksi Maxsus qismining ikki yoki undan ortiq moddasi bilan kvalifikatsiya qilishga to'g'ri keladi. Raqobatlashayotgan normalar esa bir biridan kelib chiqadi, biri boshqasining xususiy ko'rinishi bo'ladi. Shunday qilib mazkur instittlarni farqlaydigan belgilar shundan iboratki, normalar raqobatida qilmish bitta norma bilan, jinoyatlar majmuida esa ikki yoki undan ortiq norma bilan kvalifikatsiya qilinadi, shuningdek normalar raqobatida bitta jinoyat, jinoyatlar majmuida esa ikki yoki undan ortiq jinoyat tarkibi mavjud bo'ladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, jinoyat-huquqiy normalar raqobati quyidagi xususiyatlarga ega ekanligi bilan ajralib turadi, ya'ni birinchidan, raqobat aniq ish holati munosabati bilan paydo bo'ladi, ikkinchidan esa raqobatga kirishadigan normalar o'rtasida qarama-qarshilik emas, balki farq mavjud bo'ladi xolos.

Reference:

1. Abdurasulova Q.R. Jinoyatning maxsus sub'ekti. – T.: TDYUl, 2005. – B.84.
2. Aners E. Istorya yevropeyskogo prava – M.: Svyatoch, 2014.
3. Jinoyat huquqi.Umumiy qism: Darslik/A.S.Yakubov, R.Kabulov va boshq. – T.:O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2009. 131-b.
4. Odilqoriev X.T., Ochilov B.E. Hozirgi zamon xalqaro huquqi. – T.: JIDU, 2002. – B. 238.
5. Axrarov B.Dj. Boshqaruv tartibiga qarshi mansabdorlik jinoyatlari uchun javobgarlik muammolari: Yurid.fan dok. diss.... – T., 2008.
6. Axrarov B.J. Boshqaruv tartibiga qarshi mansabdorlik jinoyatlari uchun javobgarlik muammolari: Yurid. fan. dokt. ... diss. avtoref. – Toshkent: TDYUl, 2008.
7. Boboev H.B., Islomov Z.M. va boshq. Davlat va huquq nazariyasi.–T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 2000. – B.73.
8. Бородин С.В., Полубинская С.В. Уголовное право и психиатрия: некоторые области и проблемы взаимодействия // Уголовное право: новые идеи. М., 2004.
9. Брайнин Я.М. Уголовная ответственность и ее основание в уголовном праве, М: 2003.
10. Бугаевская Н.В. Должностное лицо как субъект преступления. Дис....канд.юрид.наук: 12.00.08:Рязань,2003.
11. Зуфаров Р.А. Пораҳурлик учун жиноий жавобгарлик. – Т.: ТДЮИ, 2004.
12. Зуфаров Р.А. Пораҳурликка қарши курашнинг жиноят ҳуқуқий ва криминологик жиҳатлари: назария ва амалиёт.: Юрид. фан. докт. ... дис.автореф. – Т., 2005.